

JALOLIDDIN MANGUBERDI O'Z VATANINING SODIQ O'G'LONI

BuxDPI tarix ta`lim yo`nalishi 4TAR22 guruh talabasi
Otamurodova Maftuna Komoliddin qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jaloliddin Manguberdi shaxsi, uning mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi olib borgan ozodlik kurashlari, jangovar harakatlarining ayrim jihatlari, g‘alabalari va mag‘lubiyatlari, Xorazmshohlar davlatining shuhrati va tanazulida ichki va tashqi ta’sirlarlar, buyuk najotkor sifatida Jaloliddin Manguberdining dunyo va yurtimiz tarixi, yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyatiga doir fikrlar bayon qilingan.

Kalit sozlar: Xorazmshoh Alouddin Muhammad, Jaloliddin Manguberdi, Chingizzon, Irgiz jangi, Mahmud Yalavoch, Jaloliddin Manguberdi ordeni, Vatanning sheryurak bahodiri.

Abstract: In this article, Jaloliddin Manguberdi's personality, his liberation struggles against the Mongol invaders, some aspects of the war, victories and defeats, internal and external influences on the glory and decline of the Khorezmshah state, Jaloliddin as a great savior Thoughts on the history of the world and our country, the importance of Manguberdi in the education of the younger generation are described.

Keywords: Khorezmshah Alouddin Muhammad, Jaloliddin Manguberdi, Genghis Khan, Irgiz battle, Mahmud Yalavoch, Order of Jaloliddin Manguberdi, brave hero of the Motherland.

Yurtimizning ko‘p yillik bebahoh tarixiga ko‘z tashlar ekanmiz, el-yurtimizni bosqinchi, yovuz kuchlardan ximoya qilish, millatimizning mustaqilligi va erkinligini asrashdek buyuk ishda, kurashlarda matonat, mardlik, fidoiylik ko‘rsatgan vatandoshlarimiz, sohibqironlarimiz, millatimiz ko‘rki bo‘lgan mardu-maydon o‘g‘lonlarimiz juda ko‘p bo‘lib, ularning borligidan faxr xislarini tuyamiz. Shulardan biri Anushteginiylar sulolasining yorqin va so‘nggi vakili, kuchli siyosatdon, buyuk diplomat Jaloliddin Manguberdi edi. Chingizzon e‘tirofiga sazovar bo‘lgan, mo‘g‘ullar istibdodiga qarshi kurashgan bu shaxs nafaqat O‘rta Osiyo, balki Yaqin Sharq, Janubiy Osiyo, Kavkaz xalqlari tarixida muhim o‘rin egalladi. Bor yo‘gi 32 yil umr korgan ammo dunyo tarixida o‘chmas iz qoldirgan Jaloliddinning aniq tug‘ilgan sanasi ma’lum emas, ammo uning tavvaludi rasman 1198-yil deyiladi. U Xorazmshoh Alouddin Muhammad va Oychechakning to‘ng‘ich o‘g‘li bo‘lgan. Jaloliddin yoshligidan onasining tashabbusi bilan u Kuzbor og‘adan harbiy san’atni o‘rganadi. Kuzbor og‘a unga ot minishni, qilich o‘ynatishni va kamondan o‘q uzishni o‘rgatadi. U yoshligidanoq turli xil masalalar bo‘yicha o‘z fikrini aniq isbotlay oladigan bo‘lib tarbiyalandi. Ammo, saroydagagi ichki boshboshdoqlik harakatlarning barchasini sezар,

bu holatlarning oldini olish yoki bularni to‘xtatish mushkul vazifa ekanligini bilsada, otasiga ular haqida aytishga haddi sig‘mas edi. Quyidagi maqolada Jaloliddin

Xorazmshoh harbiy hayotning ayrim jihatlariga to‘xtalib o‘tamiz. Jaloliddin 16 yoshidan boshlab otasi bilan harbiy safarlarga chiqa boshlagan. Biroq, mo‘g‘ullar bilan to‘qnashgan ilk jangida u 17 yoshda edi. Xorazmshoh Muhammad qo‘smini Samarqanddan jo‘nab Jand (Sirdaryoning quyi oqimida) orqali Irgiz daryosi (Qozog‘iston To‘rg‘ay viloyati)ga yetishdi. Irgiz daryosi yaqinida 1216 yilning yozida Xorazmshoh Muhammad va Chingizzonning o‘g‘li Jo‘jixon uchrashdi. Bu uchrashuv kutilmagan bir hol edi. Jo‘jixon Xorazmshohga elchi yuborib: “Biz siz bilan jang qilmaymiz, ulug‘ xon (Chingizzon) siz bilan urushmoqni buyurmadi” degan xabarni yuboradi. Xorazmshoh Muhammad bunga javoban: “Agar Chingizzon sizlarga men bilan jang qilishni buyurmagan bo‘lsa, Alloh taolo menga sizlar bilan jang qilishni buyurdi. Demak, jang qilamiz ”, deydi. Ana shu jangda Xorazmshohda 60 ming qo‘sishin mavjud bo‘lib, u qo‘sinni 3 qismga bo‘ladi va ulardan biriga Jaloliddinni lashkarboshi qilib tayinlab, pistirmada turishini buyuradi. Irgiz jangida Xorazmshoh dushmanning siquviga dosh berolmaydi, uni Jaloliddining xos lashkarlari bilan jangga kirib,dushmanga qaqshatqich zarba berishi qutqarib qoladi.² Xorazmshoh Muhammad musulmon davlatlar hukmdorlari ichida buyuk sarkarda hisoblanar edi u o‘z vaqtida

Qoraxitoy podshosi Go‘rxonni yengib Movarounnahrdan haydab chiqargan va shu kabi ko‘plab yurishlar orqali obro‘ qozonadi. Shu tufayli o‘ziga “Iskandari Soniy” degan rutba olgan. Sulton Alouddin Muhammad shu jang orqali mo‘g‘ullarning kuchqudratiga guvoh bo‘ldi. Sulton Xorazmshoh o‘z davrining kuchli lashkarboshisi sanalsada, ammo, u davlatdagi ichki muhitni va saroydagi qipchoqlar ustunligini yenga olmadi. Xorazmshoning Chingizzon bilan munosabatlari ilk davrlarda juda iliq kechgan. 1216-yildagi elchilik munosabatlari orqali Sharqda Muhammad Xorazmshoh, G‘arbda Jaloliddin Sulton Jaloliddin Manguberdi Mangüberdining hukmdor ekanligi haqida olingen fikrlar Chingizzonni o‘yga toldiradi. U 1216- yildagi

Irgiz jangidan to‘la xulosa chiqarmadi va ularning kuchiga munosib baho bera olmadi. 1216-1218 yillardagi Bahouddin Roziy va Ibn Kafroj Bug‘rolar orqali qilingan munosabatlardagi sovuqqonliklar Xorazmshohlarning mag‘lubiyat iskanjasiga tushishiga sabab bo‘ladi. Xorazmshohlar o‘rtasida kelib chiqqan muammolar, kelishmovchiliklar, davlatning allaqachon nurab, tanazzulga yuz tutganini anglab yetgan, asli xorazmlik bo‘lgan yirik savdogar Mahmud Yalavoch ham ulardan tonib mo‘g‘ullar tomonini tanlaydi.Tarixiy asarlarda aynan shu insonning Chingizzon xizmatida yurgani, o‘z vataninig xoini bo‘lgani, bevosit Xorazmshohlar davlatining mo‘g‘ullar tomonidan mahv etilishidagi o‘rni haqida fikrlar qoldirilgan. Chingizzonning yo‘lga chiqqanligi haqidagi xabar harbiy kengash-mashvarat a’zolarini ham o‘ylantirib qo‘yadi. Jaloliddin mo‘g‘ullar bilan birinchi

to‘qnashuvidayoq ularning harbiy ilmdagi mahoratiga tan bergen edi. Xorazm davlati esa qanday katta va qudratli imkoniyatlarga ega bo‘lmasin, unda markaziy hokimyatning sustligi, birlikning yo‘qligi, lashkarboshilarning beboshligi yaqqol ko‘ringan edi. Mashvaratda o‘rtaga tashlangan fikrlar ham ana shunday yakdillik yo‘qligini ko‘rsatadi. Xorazmshoh Muhammad buni tan olmas, tan olganda esa boshqa iloji qolmagan edi. Bu holdan Jaloliddin iztirob chekadi va harbiy kengash kuchlarining nisbatini ko‘rib chiqadi, Xorazmshohda 400 ming otliq, piyoda lashkar borligini aniqlaydi. Sultonning eng yaqin maslahatchilaridan Shihobbin Abu Sa’d ibn Imron al-Xivaqiy ana shu ulkan kuchni Sirdaryo sohiliga to‘plab dushmanga zarba berishni taklif qiladi. Harbiy jihatdan yagona va to‘g‘ri bo‘lgan bu rejani Jaloliddin ham maqullaydi. Shahzoda mo‘g‘ullarni Xuroson va Iroqqa o‘tkazmasdan, Movarunnahr hududining o‘zidayoq zarba berishni aytadi. Yana bir taklif esa dushmanni G‘aznaga chekintirgan holda to‘satdan qurshovga olish bo‘ladi. Ammo, Xorazmshoh sarkardalariga ishonmaganligi uchun bu takiliflarni rad qiladi. U Samarqandni katta devor bilan o‘rashni, aholidan soliq yig‘ib yangi sarbozlarni yollashni, bor kuchlarni shaharlarga taqsimlashni buyuradi. Xorazmshohning bu farmoni Chingizxonga davlatni ayrim-ayrim holda bosib olib, mavgud kuchlarni parchalab tashlashi uchun qulaylik yaratadi. Chingizxonning hujumi buyuk Xorazmshoh Muhammad davlatidagi ichki parokandalik, mahalliychilik va urug‘bozlikning mudhish oqibatlarini yuzaga chiqaradi. Saroyning katta xonimi Turkon Xotunning talabi bilan taxtga Jaloliddin emas, Qutbiddin O‘zloqshoh valiahd etib tayinlanadi, chunki O‘zloqshohning onasi aynan Turkon xotun urug‘idan edi. Ketma-ket mag‘lubiyatlar, mo‘g‘ullarning ta’qibi, lashkarboshilarning xiyonati Xorazmshohning ruhini tushuradi. 1220-yilning dekabrida u mo‘g‘ullardan qochib,

G‘urgon daryosining quyulish joyiga yetib keladi va Kaspiy dengizidagi Ashurada qal’asi ichiga berkinadi. Qal’ada o‘g‘illari Jaloliddin, O‘zloqshoh, Oqshoh va mulozimlari va navkarlari oldida o‘zining olmos qilichini Jaloliddingga taqdim etib, uni Xorazmshoh deb e’lon qiladi. Hamma ayonlarga bundan so‘ng davlatni Jaloliddin bsohqrishini aytib, uning har bir buyrug‘ini so‘zsiz bajarishga da’vat etadi. Xorazmshoh unvonini olgan Jaloliddin tezda Urganchga yetib borib, davlatning mudofaasiga e’tibor beradi, o‘zboshimcha amaldorlarni va qipchoq urug‘i vakillarini tartibga chaqiradi. Bunday qattiqqo‘l hukmdorning ularga keragi yo‘q, hattoki, Chingizxonning fathi ham ular uchun qiziq emas edi. Ularga faqatgina taxt zarur edi, ana shu narsani ko‘zlagan saroydagи 70 ming qipchoq askar rahbari Xumor Tegin va ukalari O‘zloqshoh, Oqshoh Jaloliddingga qarshi fitna uyushtiradi, buni bilgan hukmdor shahardan 300 nafar askarlari bilan saroyni tark etadi. Chingizxon esa o‘zining bosqinlarida O‘zloqshohni ham, Oqshohni ham, Jaloliddindan so‘ng taxtga kelgan Rukniddinni ham qatl ettiradi. Jaloliddin esa ular uchun albatta qasos olishga ahd qiladi. Tirik qolgan ukasi G‘iyosiddin bilan birga 300 kishilik qo‘shini yanada

kengaytirishga, katta askarlar guruhini yig‘ishga harakat qiladi, mo‘g‘ullar esa bunday tadbirga yo‘l qo‘ymaslikka harakat qildilar. Niso shahrida Jaloliddin ana shu 300 kishilik qo‘smini bilan 700 kishilik mo‘g‘ul qo‘sminiga qarshi jang qildi. Bu jangda Jaloliddin g‘alaba qozonadi va bu jangdan so‘ng Jaloliddin qo‘smini safiga 10.000 kishilik qo‘smini bilan amakisi Amin al-Mulk qo‘shiladi. Ular mo‘g‘ullar tomonidan qamal qilingan Qandahorga keladi va 3 kun ayovsiz jang qilishadi. Mo‘g‘ullar sharmandali tarzda mag‘lubiyatga uchrashadi. Qandohordagi olishuvda dushmanning ko‘zi ochiladi, shu davrga kelib, ko‘plab hududlarni zapt etishga ulgurgan mo‘g‘ullar Xorazmshohlar lashkarlarida ham juda katta jangovar shaylik mayjudligini bilishdi.

Sulton Jaloliddining g‘alabalari uning atrofidagi vatanparvar kuchlarni jumbushga keltiradi. Halaj qabilasi boshlig‘i Sayfuddin Ag‘roq, Balx hokimi A’zam Malik, afg‘on Muzaffar Malik kabi ko‘ngilli sardorlar, qarluqlar yetakchisi Hasan Qarluqlar, Xorazmshohning amakisi Amin -al-Mulk yana 40 ming kishilik lashkari bilan yetib keladi. Endi dushmanqa qarshi jang qilish uchun yetarlicha kuch yig‘ilgan edi. Valiyon qal’asini qamal qilgan mo‘g‘ullar ana shu birlashgan kuch bilan to‘qnashadi. Bir g‘oya va bir maqsad yo‘lida birlashgan bu qo‘singa Jaloliddin o‘zi boshchilik qiladi. Bu habarni eshitgan Chingizzon uch tumandan ko‘p qo‘sinni unga qarshi safarbar etadi. Mo‘g‘ullarning 45 minglik lashkari Jaloliddinning qo‘smini bilan Panjsher vodiysidagi Parvon dashtida to‘qnashadi. Mo‘g‘ullar askarlariga tajribali sarkarda Shiki Xutuxu no‘yon boshchilik qiladi. Jaloliddin qo‘sining o‘ng tomonini Temur Malikka, chap tomonini esa Sayfuddin Ig‘roqqa topshiradi, o‘zi esa markaziy qo‘singa bosh bo‘ladi. Uning buyrug‘iga ko‘ra hamma navkarlar otlardan tushib, jilovlarini bellariga bog‘lab, jangga kiradilar. Bu jang haqida tarixchi Shahobiddin an-Nasaviy bunday deb yozgan edi: “Jaloliddin o‘zi Shiki Xutuxu qo‘sining o‘rtasiga otilib kirib, uning harbiy tartiblarini buzdi va mo‘g‘ul bayroqlarini otlar oyog‘i ostida poymol qildi”. Parvondagi jangda mo‘g‘ullarning dovrug‘iga rahna solindi. Ammo shu jangdan so‘ng Jaloliddin lashkarboshilari orasida o‘lja talashish bo‘yicha raqobat boshlanib ketadi. Jaloliddin ularni tinchlantirishga urinsada, qarluqlar ham, afg‘onlar va halajlar ham sultonning qo‘sminini tark etadi. Shu bilan Jaloliddin qo‘sminida 700 kishi qoladi. Sind daryosidagi jangda u 3 kunlik jang olib boradi, jang 1221-yil 25 noyabrdan to 27 noyabrgacha davom etadi. Aynan uchinchi kuni jangni boy bergen Jaloliddin, o‘z lashkarlari va ahli oilasi or-nomusi mo‘g‘ullar qo‘lida toptalishini istamadi, onasi Oychechakning iltimosi va talabi bilan ularni Sind daryosiga g‘arq qilish farmonini beradi, o‘zi esa daryoni kechib, Chingiz qo‘smini turgan qirg‘oqning qarama-qarshisiga o‘tib oladi. U qirg‘oqda turganicha, dushmanqa asir tushib qolgan askarlar, singlisi va norasida o‘g‘lining ayanchli fojeyasi, qismatiga guvoh bo‘ladi, ruhi azoblanadi, chuqur qayg‘uga tushadi, lekin ortga chekinmaydi. Sind daryosidan o‘tgan Jaloliddinni tabiiyki Hindiston rojalari quchoq ochib kutib olishmaydi. U Shatra viloyati hokimi bilan jang qilishga majbur bo‘ladi, Shatra hokimi ham tajribali

sarkarda edi, ammo

Jaloliddin jangchilarining ko‘z o’ngida uni o‘ldiradi va qo‘shin unga so‘zsiz taslim bo‘ladi, shu bilan birgalikda Sind, Uchcha, Mo‘lton, Lohur, Peshov hokimi Nosiriddin Kubacha va Shamsiddin Eltutmish bilan ham aloqalar olib boradi. Shu hududdagi maslahat yig‘inida mulozimlari unga Hindistonning notinchligi, ular xohlagan vaqtida mo‘g‘ullar bilan til biriktirib ularga qarshi urush qilishlari mumkinligi, sotqinlar va ko‘rinmas kuchlarning janglari ularning madorini olib qo‘yishi haqidagi takliflarini beradilar va unga Iroqqa borishni tavsiya qiladilar.. Jaloliddin bu fikrlarni yoqlaydi va Iroqqa yo‘l oladi. U Kirmoga ya’ni ukasi G‘iyosiddinning noibi Baroq hojib bilan, Fors viloyati otabegisi, Yazd viloyati hokimi Alouddavla, Isfahon qozisi Rukniddin

Ma’sudlar bilan ko‘rishadi. Undan tashqari u Tabariston, Ko‘niya, Jazira, Quddus, Misr hokimlari bilan yaxshi munosabat o‘rnatadi. O‘sha paytda musulmonlar amiralmo‘minin nomini olgan Bag‘dod xalifasining siyosiy tushunchasi juda past edi u mo‘g‘ullardan emas, balki Jaloliddindan qo‘rqadi, u hattoki Qush Temir boshchiligidagi 20 min kishilik qo‘shin jo‘natib, Jaloliddinni yo‘q qilishni topshiradi. Bu jangda Nosir qo‘shinlari mag‘lub bo‘ladi va hamma hokimlar musulmonlar amiri sifatida Jaloliddinni tan olishadi. Ozarbayjon aholisi musulmonlar amiri sifatida tanilgan Jaloliddin bilan yaqin aloqa qilishga harakat qilishadi, chunki nasroniy gurjilar ularni har doim talab, nasroniylikka o‘tishlarini talab qilar edi, 1225-yil may oyida Marog‘a egallanib, hukmdor O‘zbek qochib ketadi. Ozarbayjon egallanganidan so‘ng Jaloliddin aynan Gurjilar ustiga yurish qilishga harakat qiladi. Gurjilar malikasiga o‘zining shuhrati, davlati va jangdagi mahoratlarini maqtadi. Gurjilar malikasi ularga tinchlik taklif qiladi. Rusu Gurjilar malikasi (1222-1245)ga Jaloliddin uylanishini, shu orqali hamma xalqlar umumiy dushmanlari bo‘lgan mo‘g‘ullarga qarshi jang qilishini, jangga ham tayyorligini aytadi. Ammo malika unga nasroniylikni qabul qilishini aytadi,

Jaloliddin jang yo‘lini tanlaydi. 1225-1226 yillarda Gurjiston to‘la egallanadi. Jaloliddin hukmdor sifatida ko‘plab masaqqatli yo‘llarni bosib o‘tdi. U yo‘lda sarkardalari, otasi-onasi, ukalari, opasi, rafiqasi, farzandlari, askarlarini yo‘qotdi, ayonlarining xiyonatlarini ko‘rdi. Insonni o‘yga soluvchi tomoni shundaki, nega musulmon amirlari Jaloliddinga bo‘ysunishni u bilan birga jangu-jadalga kirishni, mo‘g‘ullar qo‘ida qaram bo‘lmay, Xorazmshoh qo‘lida erkin viloyat bo‘lib yashashni xohlamadilar? Axir sultonning maqsadi nafaqat markazlashgan davlat tashkil etish, balki musulmonlar dunyosini yovuz dushman, bosqinchi mo‘g‘ullar isti’losidan ozod qilish edi. Maqolada Jaloliddin Manguberdi hayot yo‘lining ayrim jihatlariga fikr bildirib o‘tdik, xolos va bunga o‘zimizni burchli deb hisobladik. Buningi kenga kelib Mustaqil O‘zbekistonimizning tarixi olimlarimiz tomonidan tatqiq qilinayotgan Jaloliddin Manguberdi hayoti bilan bog‘liq ilmiy yangiliklar, yangi tarix zarvaraqlari

bilan boyitildi, uning obro'si va shani yanada tiklandi. Baddiy asarlar, kinofil'mlar, san'at asarlar yaratildi, xalqaro miqyosdagi ilmiy anjumahlar tashkil etildi. Davlatimiz tomonidan Jaloliddin Manguberdining Vatanimiz ozodligi va obodligi yo'lida olib borgan mardona kurashi va hayot yo'liga xolisona baho berildi.

1999 yil uning 800 yillik tavaluddi munosabati bilan esdalik yubiley tangasi zarb etildi,

2000 yil O'zbekiston Respublikasining oily mukofati hisoblangan "Jaloliddin Manguberdi" ordeni ta'sis etildi, Qurolli Kuchlarimizning timsoliga aylandi. 2015 yil taniqli olim va publitsist Jumaboy Rahimov tomonidan Jaloliddin Manguberdining hayoti keng va yorqin bayon qilingan "Vatanning sheryurak bahodiri" nomi ostida kitob-al'bom chop qilindi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov "Sulton Jaloliddin siymosi nafaqat Xorazm, balki butin O'zbekistonning faxru-g'ururidir. U bizning ozodligimizga, istiqlolimizga tajovuz qilmoqchi bo'lgan har qanday yovuz kuchga qarshi tik turib kurashishga, mardona zarba berishga qodirligimizning tasdig'i va timsolidir. Bu bahodir zotning muborak nomi, uning qahromonligi kelagak avlodlarga, birinchi galda siz bilan bizga tarixiy xotira oldida boshimizni mag'rur tutib yashamog'imiz uchun to'liq huquq beradi" dey faxp bilan e'tirof etgan edilar. El-yurti, davlati uchun, uning taqdiri va kelajagi uchun jon kuydiradigan, xalq manfaatini o'z manfaati, tinchligidan ustun qo'ya olgan, har qanday vaziyatda ham yurtni birlashtira oladigan, yurti uchun yonib yashaydigan vatanparvar, erkparvar farzandlargina tarixda o'chmas iz qoldiradilar. Ana shunday nom yurtimizning mard o'g'loni Jaloliddin Manguberdiga nasib etdi. Jaloliddin Manguberdining timsoli, uning beqiyos jasorati har bir yurtdoshimiz uchun, yurtimizning kelajagi bo'lgan yosh avlod uchun jasorat, matonat maktabi bo'lib asrlardan-asrga o'tib boraveradi. Uming betakror nomi shoirlarning she'rida, go'zal kuy-qo'shiqlarda, durdona asarlarda mangy tarannum etiladi, yuraklarda yorqin yulduz misol charaqlab tinchlik sari chorlab turadi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Arbob sayti va Hamdam Sodiqov : Sulton Jaloliddin Manguberdi.
2. Jumaboy Rahimov. Vatanning sheryurak bahodiri. "O'qituvchi" nashriyotmatbaa ijodiy uyi. "Talqin" nashriyoti. Toshkent-2015.
3. Ахмедов, Б. А. (2021). Задачи обеспечения надежности кластерных систем в непрерывной образовательной среде. Eurasian Education Science and Innovation Journal, 1(22), 15-19.
4. Ахмедов, Б. А. (2021). Динамическая идентификация надежности корпоративных вычислительных кластерных систем. Academic Research in Educational Sciences, 2(3), 495-499.
5. Ахмедов, Б. А. (2020). О развитии навыков интерактивных онлайн-курсов в дистанционных условиях современного общества (модель-программа для преподавателей образовательных учреждений). Universum: технические науки, 12-1 (81).
6. Akhmedov, B. A. (2021). Cluster methods for the development of thinking of students of informatics. Academy, 3(66), 13-14.